



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2024 - yil 6 - iyun

238-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**Qarshi shahar obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi
asosida yer maydonini ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagи “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 16-apreldagi 232-son va Qarshi shahar obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 1-maydagи 03/287-24-son buyurtma xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobjiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobjiy xulosalari hamda kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Qarshi shahar obodonlashtirish boshqarmasiga shahardagi avtomobil ichki yo‘llarini qurish (rekonstruksiya qilish) uchun egallab turgan 9,12 hektar shahar hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.
3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.
4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiy lashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanimishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanimaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
238-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**2024-yil "Tashabbusli budjet" doirasida ichki yo'l ob'ektlari xatlovdan o'tkazilganligi to'g'risida
ma'lumot**

T/r.	Shahar nomi	MFY nomi	Yo'l uzunligi (km)	Gektari
	Jami		15,2	9,12
1	Qarshi shahri	"Arabxona" MFY Qo'ng'irtog'-1, Qo'ng'irtog'-2 va Yangibog' ko'chalari	3,8	2,28
2		"Ravoq" MFY Yerqo'rg'on ko'chasi	3,8	2,28
3		"Bunyodkor" MFY Mustaqillik 14-, 15 va 16- ko'chalari	3,8	2,28
4		"Qavali" MFY Yoshlik massivi ichki yo'li	3,8	2,28